Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

SHUKUR XOLMIRZAYEV PROZASIDA INSON KONSEPSIYASI: “ODAM” VA “FARZAND” HIKOYALARI TALQINIDA

Zayniddinova Sevinch Bekzod qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

szayniddinova582@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20036587

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev prozasida inson konsepsiyasining badiiy talqini “Odam” va “Farzand” hikoyalari misolida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tiplogik tahlil usulidan foydalanilgan holda yozuvchining realizmga asoslangan badiiy tafakkuri, inson ruhiyatini tasvirlashdagi psixologik tahlil usullari hamda axloqiy tanlov muammosi yoritiladi. Tahlillar natijasida yozuvchi insonni ideal obraz sifatida emas, balki ichki ziddiyatlar va ma’naviy izlanishlar orqali shakllanuvchi murakkab shaxs sifatida tasvirlashi, ota-farzand munosabatlaridagi mas’uliyat insoniy qadr-qimmatning asosi ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek nasri, inson konsepsiyasi, falsafiy realizm, psixologizm, axloqiy tanlov, ota-farzand munosabatlari, badiiy talqin.

Аннотация: В данной статье рассматривается художественная интерпретация концепции человека в прозе Шукура Холмирзаева на примере рассказов “Одам” (Человек) и “Фарзанд” (Дитя). В ходе исследования с использованием сравнительно-типологического метода освещаются реалистическое художественное мышление писателя, методы психологического анализа и проблема нравственного выбора. В результате анализа делается вывод о том, что автор изображает человека как сложную личность, формирующуюся через внутренние противоречия, а ответственность в отношениях отца и ребенка рассматривается как основа человеческого достоинства.

Ключевые слова: узбекская проза, концепция человека, философский реализм, психологизм, нравственный выбор, отношения отца и ребенка, художественная интерпретация.

Abstract: This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the concept of human nature in the prose of Shukur Kholmirzayev based on the stories “Odam” (“Human”) and “Farzand” (“Child”). Using the comparative-typological method, the research examines the writer’s psychological realism, moral choices, and the spiritual struggle of the characters. The findings reveal that the author portrays the human being not as an ideal image, but as a complex individual evolving through internal conflicts and moral awakening, where parental responsibility stands as a core human value.

Keywords: Uzbek prose, human concept, philosophical realism, psychological analysis, moral choice, parent-child relations, artistic interpretation.

Kirish. XX asr o‘zbek nasri inson ruhiyatini tasvirlashda yangi bosqichga ko‘tarilgan davr hisoblanadi. Bu davr adabiyotida shaxsning ichki olamini badiiy tadqiq qilish, insonning hayotiy qarorlari va ma’naviy izlanishlarini ko‘rsatish asosiy estetik tamoyillardan biriga aylandi. Ana shunday jarayonda Shukur Xolmirzayev ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o‘z hikoya va qissalarida insonni murakkab ruhiy olamga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Uning qahramonlari ko‘pincha oddiy hayotiy vaziyatlarda o‘zlarini namoyon etadilar, ammo bu vaziyatlar ortida chuqur falsafiy

mazmun yashiringan bo‘ladi. Shukur Xolmirzayev prozasining muhim xususiyatlaridan biri realizm tamoyiliga sodiqligidir [3;25]. Yozuvchi hayotni idealizatsiya qilmaydi, balki uni boricha, tabiiy holda tasvirlaydi. Shu sababli uning asarlarida inson obrazlari ham hayotiy, real va psixologik jihatdan ishonarli bo‘lib chiqadi. Yozuvchining “Odam” va “Farzand” hikoyalari aynan inson konsepsiyasining badiiy talqinini ko‘rsatib beruvchi muhim asarlardan hisoblanadi [7; 112].

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tiplogik tahlil, psixologik tahlil hamda germenevtik talqin usullaridan foydalanildi. Shukur Xolmirzayevning badiiy mahorati va realizm tamoyillari asarlarning syujet va kompozitsion qurilishi asosida o‘rganildi. Inson konsepsiyasini yoritishda qahramonlarning ichki monologlari va xatti-harakatlari asosiy tahlil obyekti sifatida olindi.

Natijalar. “Odam” hikoyasida inson konsepsiyasi hayotiy tajriba va xotira orqali ochiladi. Asarda Rahima buvi obrazi markaziy o‘rinda turadi. U tasavvurimizda uzoq umr kechirgan, turli tarixiy davrlarning guvohi bo‘lgan inson sifatida gavdalanadi. Qahramonning xotiralari orqali o‘tgan hayot manzaralari jonlanadi. Bu xotiralar oddiy esdalik sifatida emas, balki inson hayotining mazmunini anglashga xizmat qiluvchi falsafiy mushohada namoyon bo‘ladi. Rahima buvi obrazi orqali yozuvchi inson umrining murakkab va ziddiyatli yo‘lini ko‘rsatadi. Uning hayotida turli qiyinchiliklar, yo‘qotishlar va sinovlar bo‘lgan. Biroq u bularning barchasini sabr-toqat bilan yengib o‘tgan obraz bo‘lib, umrining yakuni ham sinovlarga boy tarzda o‘tadi. Kishining ko‘nglini jumbushga keltiruvchi quyidagi satrlar bunga yaqqol misol bo‘ladi desak, yanglishmagan bo‘laman:

Adolat opa yig‘ladi. Chiqib eriga yolvordi:

– Choljon, qanday kunga qoldim? Enam yosh bola bo‘lib qopti. Choljon... nahotki odam oxir-oqibatda shunday bo‘lib qolsa-ya? Bu dahshat emasmi?.. Boyoqish enam! Yomon ayolmas edi. Bizni deb yashadi, umri o‘tdi. Endi hech narsani bilmay, eslolmay o‘tiripti. Bilgani, eslagani – bolaligi!.. Men qo‘rqib ketyapman, choljon? Menga qarang, nimani o‘ylayapsiz?

– Kampir... odam bola bo‘lib o‘lmaydi.

– Yo‘q, yo‘q! Bunda bir sir bor... Xo‘p deng. Men naqdini ham eshitganman. Topishmoq bor-ku: to‘rt oyoqli bo‘lib tug‘ilarmish, keyin uch oyoqli bo‘larmish...

– Keyin ikki oyoqli.

– To‘g‘ri-da, odam tug‘ilganda o‘rmalab yuradi, keyin bir nimaga suyanib yura boshlaydi, uch oyoqli bo‘ladi. Keyin ikki oyoqli, a?

– So‘ng qo‘liga hassa oladi, tag‘in uch oyoqli bo‘ladi. Keyin...

– Yana to‘rt oyoqli bola... Bola! Choljon, haqiqatdan ham enam bola bo‘lib qoldi-ku? Erta-indin hassaga tayanib ham yurolmay qoladi.

Bu yerda Adolat opa Rahima buvining qizi va u o‘z umr yo‘ldoshiga onasi haqida gapirib, tashvishlanayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Chindan ham jamiyatimizda ko‘pgina ayollarning umri, hayoti avvaliga ota-onasining qaramog‘ida, ularning xohishlariga asosan hayot kechirish bilan o‘tsa, vaqt o‘tib oila qurib bola-chaqali bo‘lgach, kelin bo‘lib borgan xonadonida “yangi oilasi”ning xohishlariga yarasha ish qiladi. Hikoyada Rahima buvi hatto inqilob tufayli kichik farzandidan ayriladi, Adolat va Abdurahimni yolg‘iz o‘zi katta qiladi. Urush boshlanib, bir yil o‘tib, o‘g‘lidan qora xat oladi va Abdurahimning ayoli ikki yetim bilan qoladi. Ko‘p o‘tmay kelini qaynonasiga ikki farzandini tashlab ketadi. Adolat opa ham bir nafar farzandini onasiga tashlab, ishga chiqib ketadi.

Vaqtlar o‘tib Rahima xola keksayadi, nabiralari, chevaralarini katta qilib, keksalik gashtini suray degan davrlarida ruhiyatida ancha o‘zgarishlar kuzatiladi. Bir qarasa, o‘zini deyarli 15 yoshli qizday, bir qarasa yosh bo‘lib, hayot sinovlarini qanday boshidan o‘tkazganligini chevaralariga ko‘p aytib berardi. O‘z qizini, kiyovini ham taniy olmay qolgan paytlari kuzatiladi. So‘ng bir kuni rahmatli umr yo‘ldoshi ko‘ziga ko‘rinadi. O‘g‘li Abdurahimni ko‘radi, so‘ng uni o‘z farzandidan ayirgan o‘sha urushni la’natlaydi, o‘sha mash’um bo‘lib o‘tgan voqealarni esga oladi. Ushbu holat orqali insonning ma’naviy kuchi va ruhiy bardoshliligining ifodalanganligini ko‘rish mumkin. Hikoyada qahramonning o‘z o‘tmishini eslab o‘ylashi inson hayotining o‘tkinchiligi haqida chuqur falsafiy xulosalar chiqarishga olib keladi. “Odam” hikoyasining muhim jihatlaridan biri shundaki, unda inson hayoti tarix bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Qahramon boshidan kechirgan voqealar jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Shu orqali yozuvchi inson taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

“Farzand” hikoyasida esa inson konsepsiyasi boshqa badiiy vaziyat orqali ochiladi. Bu hikoyada asosiy e’tibor ota va farzand o‘rtasidagi munosabatlarga qaratilgan. Hikoya qahramoni Mengboy o‘g‘li Islomni juda yaxshi ko‘radi. Uning farzandiga bo‘lgan mehri asarning markaziy hissiy g‘oyasini tashkil etadi.

Asarda Mengboyning ichki dunyosi va ruhiy kechinmalari juda tabiiy tasvirlangan. U hayotida muayyan bir paytda axloqiy tanlov qarshisida qoladi. Bir tomonda — farzandiga bo‘lgan mas’uliyati va otalik burchi, ikkinchi tomonda esa yangi hissiy tuyg‘ular mavjud bo‘ladi. Yozuvchi bu ziddiyatni dramatik tarzda emas, balki hayotiy va psixologik jihatdan ishonarli tarzda tasvirlaydi.

Mengboyning ichki kurashi inson tabiatining murakkabligini ko‘rsatadi. Qahramon o‘z his-tuyg‘ulari bilan kurashadi, o‘z qarorining oqibatlari haqida o‘ylaydi. Oxir-oqibat u farzandini tanlaydi. Bu tanlov orqali yozuvchi insoniy mas’uliyat va ota mehri eng oliy qadriyat ekanini ko‘rsatadi. Mengboyning Hanifa bilan uchrashuvi uning uchun bir sinov edi. U Hanifada o‘zi istagan “rashkni sevadigan”, “yurtini ko‘rishni xohlaydigan” ayolni ko‘radi. Ammo pirovardida, o‘g‘lining bo‘yniga talpinishi unga hayotning asl ma’nosi “boshqa buyuk bir nima” (ota-bolalik rishtasi) ekanini anglatadi.

Muhokama. “Odam” va “Farzand” hikoyalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki asarda ham inson konsepsiyasi markaziy badiiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq bu g‘oya turli badiiy vaziyatlarda ochiladi. “Odam” hikoyasida inson hayotining umumiy falsafasi tasvirlangan bo‘lsa, “Farzand” hikoyasida insoniylik masalasi konkret axloqiy tanlov orqali ifodalanadi. “Odam” va “Farzand” hikoyalari turli syujetga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy g‘oya insoniylik masalasidir. “Odam” hikoyasida inson hayoti umumiy falsafiy nuqtai nazardan tasvirlangan bo‘lsa, “Farzand” hikoyasida insoniylik konkret axloqiy tanlov orqali ochiladi. Har ikki hikoyada yozuvchi psixologik realizm usulidan foydalanadi [4;45]. Qahramonlarning ichki monologlari, xotiralari va hissiy kechinmalari orqali ularning ruhiy olami ochib beriladi. Bu esa yozuvchining inson ruhiyatini chuqur anglashga intilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yozuvchi qahramonlarini ideal obraz sifatida tasvirlamaydi. Ular oddiy insonlar bo‘lib, ichki ziddiyatlar va shubhalarni boshdan kechiradilar. Aynan shu ziddiyatlar orqali ularning insoniy qiyofasi namoyon bo‘ladi. Bu jihat Shukur Xolmirzayev prozasining realizm tamoyiliga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson konsepsiyasi chuqur falsafiy mazmunga ega. “Odam” hikoyasida inson hayotining ma’naviy tajribasi va xotira fenomeni tasvirlangan bo‘lsa, “Farzand” hikoyasida insoniylik axloqiy tanlov orqali namoyon bo‘ladi. Har ikki hikoya insonning haqiqiy qadr-qimmati uning vijdoni, mas’uliyati va mehrida ekanini ko‘rsatadi. Yozuvchi insonni mukammal mavjudot sifatida emas, balki ichki kurashlar orqali kamol topadigan murakkab shaxs

sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan Shukur Xolmirzayev nasri o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatini realistik va chuqur badiiy talqin qilgan muhim adabiy hodisalardan biri hisoblanadi. E’tibor beradigan bo‘lsak, Shukur Xolmirzayevning hikoyalari turli xil bo‘rttirishlardan holi, ya’ni ko‘proq hayotiy realliklar asosiga qurilgan hisoblanadi. Yozuvchi Erkin A’zam o‘zining Shukur Xolmirzayev xotirasiga atab yozgan **“Yozuvchi”** nomli hikoyasida ta’kidlaganiek, u **“hikoyachiligimizning piri“** edi [10; 1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 544 b.
2. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016. – 320 b.
3. Normatov U. O‘zbek adabiy tanqidi va nasr poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 256 b.
4. Qo‘shjonov M. O‘zbek nasrida psixologizm masalalari. – Toshkent: Fan, 1983. – 232 b.
5. Rasulov A. Badiiy tahlil mezonlari. – Toshkent: Fan, 2001. – 168 b.
6. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – 424 b.
7. Xolmirzayev Sh. Saylanma asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: Sharq, 2003. – 464 b.
8. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-farzand-hikoya
9. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-odam-hikoya
10. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-yozuvchi-hikoya